

KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Navoiy Davlat Universiteti

*Tarix fakulteti “Milliy-g’oya, ma’naviyat asoslari
va huquq ta’limi” yo’nalishi 3-D guruh talabasi*

Isaqulova Nigora

*Ilmiy rahbar: Navoiy Davlat Universiteti,
katta o’qituvchi,*

N.Sharipova

Annotatsiya: Ushbu maqolada konstitutsiyamizga qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritilganligi va yangi tahrirdagi konstitutsiyada Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslari yaratilishi, shuningdek, konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari, uning sha’ni, qadr-qimmati oliy qadriyat ekanligi va davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi ham aynan inson huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgani hamda yangilangan konstitutsiya mana shu islohotlarning o’ziga xos huquqiy mezoni bo’lganini yoritishga bag’ishlanadi.

Kalit so’zlar: Yangilangan konstitutsiya, demokratiya, huquq, erkinlik, ijtimoiy davlat, dunyoviy davlat, jamiyat, inson sha’ni va qadr-qimmati.

Аннотация: В данной статье говорится что в нашу Конституцию внесены дополнения и изменения и что политико-правовая основа реализации стратегии развития Нового Узбекистана создана в новой редакции Конституции а также что права и свободы человека его чест и достоинство являются высшей ценностью в конституции и что государственная политика разъясняет что приоритетное направление направлено на обеспечение прав и свобод человека и что обновленная конституция является конкретным правовым критерием этих реформ посвящен.

Ключевые слова: Обновленная конституция , демократия, закон, свободасоциальное государство, светское государство, общество, человеческое достоинство и ценность.

Ma'lumki, Respublikamizda 2023-yilning 30-aprelida amaldagi konstitutsiyamizga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida referendum o'tkazildi va referendum natijalariga ko'ra fuqorolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi konstitutsiyani yoqlab ovoz berdi. Bunga qadar ya'ni 1992-yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartirish kiritilgan edi. Bu safar o'zgarishlar ko'lamida katta bo'lganligi tufayli hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Referendum natijasida konstitutsiyamiz tarkibiga quyidagicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi: amalda 6 bo'lim, 26 bob, 128 ta moddadan iborat bo'lgan konstitutsiya endilikda 6 bo'lim, 27 bob, 155 ta moddadan iborat tarkibda yangilandi. Ushbu referendum natijasi umuman olganda konstitutsiyamizning 65% ga yangilanganini ko'rsatdi.

Yangilangan konstitutsiyaga nafaqat son jihatdan , balki mazmun-mohiyati jihatdan ham ko'plab o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, konstitutsiyamizning 1-moddasidagi "O'zbekiston suveren demokratik Respublika" jumlasida O'zbekiston – boshqaruvning Respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

O'zbekiston o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilishi bu – jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillari asosida siyosat yuritish, imkoniyati cheklangan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqorolarni qo'llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi, pensiya va nafaqalar tizimini yanada takomillashtirish, kam ta'minlangan oila farzandlari uchun ham sifatli ta'lim va malakali tibbiy xizmatni kafolatlash demakdir.

Dunyoviy davlat deb e'lon qilinishi esa din va davlatning bir-biridan ajratilganini anlatadi. Dunyoviy davlat- rasmiy davlat dini mavjud bo'lmagan davlatdir . O'zbekistonning dunyoviy davlat deb e'lon qilinishi barcha fuqorolar uchun vijdon erkinligini ya'ni har bir fuqoro xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqini kafolatladi.

Jumladan, konstitutsiyamizning 15-moddasiga quyidagicha qo'shimcha qo'shildi: O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Konstitutsiyaning to'g'ridan- to'g'ri amal qilishi nafaqat qonunlar, balki konstitutsiya normalariga asoslangan holda ish olib borishiga imkon beradi.

Yangilangan konstitutsiyaga kiritilgan yana bir muhim o'zgarish bu jamiyatda o'qituvchilarning maqomini yana oshirish maqsadida konstitutsiyaga o'qituvchilar haqida yangi moddaning qo'shilishi bo'ldi . U ikki banddan iborat:

-O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish , sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash , xaqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etadi.

-Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Ushbu moddaning konstitutsiyaga kiritilishi bilan ustozlar huquq sohasi vakili bo'lmagan, lekin qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "O'zbekiston kelajagi-maktab ostonasidan boshlanar ekan , o'qituvchilarga alohida e'tibor berilishi, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning huquqiy maqomini qonuniy mustahkamlash ta'lim sohasining yanada rivojlanishiga va kelajak bunyodkori bo'lmish yoshlarni har tomonlama yetuk , intellektual salohiyatli bo'lib voyaga yetishiga sabab bo'ladi."

Yangilangan konstitutsiyada nafaqat inson va jamiyat hayotiga oid sohalarda, balki davlat boshqaruv sohasida ham bir qancha o'zgarishlar bo'ldi. Xususan Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga o'zgartirildi. Prezidentning "davlat boshlig'i "maqomi saqlab qolindi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Prezident bo'lishi mumkin emasligi va Prezident qasamyodi matni o'zgarishsiz qoldi.

Endilikda bosh vazir nomzodini ham g'olib partiya emas, Prezident taqdim etadigan bo'ldi. Senatorlar soni ham 100 nafardan 65 nafarga tushirildi va 14 ta

hududdan 6 nafardan emas , 4 nafardan senator saylanadigan bo'ldi. Prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqartirildi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiya xalqimiz farovon hayotining mustahkam huquqiy asosi va ishonchli kafolati bo'ldi. Bosh qomusimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlari ijtimoiy adolat va birdamlik prinsplariga asoslangan holda joriy etildi. Insonning shaxsiy huquq va erkinliklari eng ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq ravishda mustahkamlab qo'yildi. Xususan, konstitutsiyamizda hech kim qonunda asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqda saqlanishi mumkin emasligi, qamoqqa olishga faqat sudning qarori bilan yo'l qo'yilishi mustahkamlab qo'yildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yangi tahrirdagi konstitutsiya jamiyatda inson huquq va erkinliklarining o'ziga xos huquqiy kafolati bo'ldi, endilikda xalq davlat organlariga emas, davlat organlari va mansabdor shaxslar xalqqa xizmat qilishi va davlat boshqaruvida xalqning bevosita ishtirokini ta'minlaydigan demokratik tamoyillar belgilab qo'yildi.

Shuningdek, yangilangan konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi.
2. <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>
3. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m11846>.
4. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-tahrirdagi-konstitutsiya--taraqqiyot-strategiyasi-poydevori>.